

“PEDAGOGIKA” FANI KATEGORIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

N.J.ISAKULOVA

O'zDJTU professori, ped. fan. dok.

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Pedagogika” fani kategoriyalarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Kategoriya, tushuncha va terminlarning izohi o'rganilgan. Pedagogika kategegoryalari tasnifi keltirilgan. Pedagogika kategoriyalari nazariy kategoriyalar, empirik kategoriyalar, tarixiy kategoriyalar, fanlararo kategoriyalar, integrativ kategoriyalar, sohalararo kategoriyalar, umumiste'moldagi kategoriyalarga ajratilgan.

Kalit so'zlar: kategoriya, tushuncha, termin, nazariy kategoriyalar, empirik kategoriyalar, tarixiy kategoriyalar, fanlararo kategoriyalar, integrativ kategoriyalar, sohalararo kategoriyalar, umumiste'moldagi kategoriyalar.

Kirish (Introduction). Hozirgi vaqtda “pedagogika” tushunchasi pedagogik fanlarning butun tizimini anglatadi. Pedagogika fanlarida kategoriyalar asosiy o'rin egallaydi. Bunda biz pedagogika fani kategoriyalarini tahlil qilishimiz uchun avvalom bor kategoriya tushunchasini aniqlab olamiz.

Kategoriya - yunoncha kategoriya “ko'rsatma”, “dalil”, “tushuncha” degan ma'nolarni anglatib, pedagogikada pedagogik jarayonlar xususiyatlari, mazmun-mohiyatini, shaxs va jamiyat, shaxs va guruh, shaxs va jamoa o'rtasidagi, ta'lim va tarbiya, ma'naviy-axloqiy, estetik, iqtisodiy- ekologik va h. munosabatlarni aks ettiruvchi asosiy tushunchadir. Kategoriyalar bilish jarayonlarining tarixiy rivojlanishi va jamiyat tajribasi asosida paydo bo'ldi. Kategoriyalar orqali inson borliqini, tevarakatrofni, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni o'rganadi [2; 27-b.].

Мавзуга оид адабиётлар тахдили (Literature review). X.Ibraimov, M.Quronovlar pedagogika-insonshunoslikfani bo'lib, jamiyat va shaxs munosabatlarini tizimlashtiradigan tarbiya va ta'lim muammolarini o'rganadi. Unda hozirgi zamon fani va metodologiyasining quyidagi umumiy masalalari yoritiladi:

fan tarixi va taraqqiyoti;
fan haqidagi asosiy konsepsiyalar;
hozirgi zamon fanidagi asosiy dolzarb muammolar [2; 27-b.].

A.Asqarov, Z.Axrорова, E.Ro'zimatov, Sh.Sadikova, U.Sodikovlar hammualliflikda yaratilgan “Umumiy pedagogika” fani bo'yicha O'UMda pedagogika — ta'lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o'rganadigan fan sohasi sifatida o'rganilgan. Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati - uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tibomi qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Pedagogika fanining obyekt - yaxlit pedagogik jarayon. Pedagogika fanining predmeti - ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari tashkil etadi [1; 21-22-b.].

O'zbek tilining izohli lug'atida kategoriya (yun. kategoriya - ayblash, ta'na qilish) quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning eng muhim xususiyatlari va aloqalarini ifodalovchi umumiy tushuncha. Masalan, zamon kategoriyasi, sababiyat

kategoriyasi.

2. Muayyan belgilaming umumiy ligi bilan birlashgan narsa, hodisa, shaxslar turi, turkumi, guruhi, daraja.

3. Ilmiy terminologiyada: predmet turlarini yoki ulaming umumiy belgilarini bildiuvchi tushuncha [6; 332-b.].

Falsafa qomusiy lug'atida kategoriyalar (yun. kategoriya - belgi, izohlash) — falsafiy tafakkur uchun nihoyatda muhim, olamdagi o'zgarish, rivojlanish, aloqadorlik va uzviy bog'liqlikka xos umumiy jihatlarning in'ikosi; narsa va hodisalarning o'ziga xosligi, o'xshashligi va farqlarini, barqarorligi va o'zgarishini anglatuvchi, bilishning asosini tashkil etuvchi eng umumiy tushunchalar. Ma'lumki, har bir fan ikkinchi fandan o'zining tadqiqot obyektining xususiyatiga, unda ishlatilayotgan tizimining o'ziga xosligiga qarab farqlanadi. Tushunchalar tizimi esa har bir fanning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini ko'rsatadi [5; 193-b.].

Ilmiy kategoriyalar - bu ilmiy tafakkurning shakllari va tashkiliy tamoyillarini ifodalovchi eng umumiy, fundamental tushunchalar. Ilmiy kategoriyalar tizimi yoki kategorik tuzilish - bu ilmiy fikrlashning asosiy tushunchalari tarmog'i, ulaming barqaror konfiguratsiyasi va o'zaro bog'liqligi, unda ba'zi elementlarning o'zgarishi boshqalarning o'zgarishiga olib keladi [3].

Yuqorida qayd etilgan ta'riflardan ma'lumki, kategoriya tushuncha, termin deb olingan. Tushunchaning ma'nosi o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha o'z ifodasini topgan:

1. Narsa va hodisalarning mantiqan ajratilgan muhim belgilarini, aloqa va munosabatlarini umumlantirib aks ettiruvchi umumiy tasavur; tafakkur shakli. Masalan, so'z turkumlari haqida tushuncha, materiya haqida tushuncha, qo'shimcha qiymat tushunchasi.

2. Umuman, narsalar, hodisalar haqidagi tasavur, tushunish. Masalan, qishloqqa yangi zamonning yangi odamlari kelar va .. yangi nom,

yangi tushuncha olib keladilar (P.Tursun, O'qituvchi).

3. Onglilik darajasi, ong. Masalan, siyosiy tushuncha.

4. Insonning bilim va tasavurlari darajasi; saviya. Masalan, tushunchasi past odam [7].

Termin (lot. terminus - chek, chegara) fan, texnika, kasb-hunaming biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bolgan so'z yoki so'z birikmasi; atama. Masalan, botanika terminlari, zargarlik terminlari va b. [7; 222-b.].

Demak, kategoriya fanda narsa va hodisalarning eng muhim xususiyatlari o'rganadi, tushuncha — narsa va hodisalarning mantiqan ajratilgan muhim belgilarini tahlil qiladi, termin esa — kasb-hunaming biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq ifodasi tushuniladi.

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Asosiy pedagogika kategoriyalariga quyidagilar kiradi: ta'lim, o'qitish, tarbiyalash, rivojlanish, sotsializatsiya, pedagogik tizim, o'quv jarayoni, pedagogik faoliyat, pedagogik o'zaro ta'sir, pedagogik vazifa, ta'lim texnologiyasi (1-rasmga qarang) [4].

Shuningdek, pedagogikaning asosiy kategoriyalariga tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, ma'hiyat, mahorat, shaxs, rivojlanish, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, bilish, o'rgatish, ta'lim-tarbiya metodlari, prinsiplari va boshqalar ham kiradi (2-rasmga qarang).

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results). Pedagogika kategoriyalarini quyidagicha tasniflaymiz:

nazariy kategoriyalari;
empirik kategoriyalari;
tarixiy kategoriyalar;
fanlararo kategoriyalar;

o'qitish	tarbiyalash	rivojlanish	sotsializatsiya	pedagogic tizim
o'quv jarayoni	pedagogic faoliyat	pedagogic o'zaro ta'sk	pedagogic vazifa	ta'lim texnologiyasi

1-rasm. Pedagogika kategoriyalari

TARBIYA - o'sib kelayotgan avlodda hosil qiEngan bffimlar asosida aqEy kamolot - dunyoqarashni, insoniy e'boqod, bur ch va mas'uhyatni, jamiyatiniuz kishilariga xos bo'lgan axloqiy faziladanii yaratishdagi maqsadni ifodalaydi	BILIM - btr butunhkni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi. ulaming ichid addiyatlaridan kehb chiqqan bog'hqbkdn	KO'NIKMA -malakanmg tarldbiy qisnu bo "Kb, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsac^a muvofiq ravishda baprihsh qobihyatini ifodalaydi va ko'p marotaba talcrorlanadtgMn mashqlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar yigindisidir
MALAKA - bilim va ko'nikmani istalgan joyda qo'llay olishdir	MATAJMOT -ta'hm-tarbiya nanjasida ohngan va <u>fi</u> zmlashhngan bilim, hosil qihngan konikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidrr	MAHORAT - turh malakalardan ishonchli, ijodiy foydalamlsh hamda kasbiy malakalar nvojlanihmng yuqon darajasi va kasbiy ta'limning mutlaq maqsadidir
ShAXS-jamryat a zosi sifabda o'z o'zmi anglash va tafakkur faokyatming obyebvhgi, muloqotda biologik, ijtimoty muhit hamda maqsadh tarbiya natijasida shakflanadi	PEDAGOGIK MUHIT - tahm-tarbiya maqsadlanga muvofiq ravishda tuzilgan shaxslararo munosabatlar majmuasi	FAOLIYAT - btror shaxsiy, guruhii, milliy yoki umuminsomy ehtiyojlarga javbb beruvciu maqsad san yo'nalurlgan harakat

2-rasm. Pedagogika kategoriyalari

integrativ kategoriyalar; "Pedagogika", "Psixologiya"), faoliyat
 sohalararo kategoriyalar; ("Pedagogika", "Psixologiya"), o'qitish
 umumiste'moldagi kategoriyalar. ("Pedagogika", "Psixologiya", "Metodika") va

Nazariy kategoriyalarga shaxs, faoliyat, boshqalar hisoblanadi. Integrativ kategoriyalar - pedagogik muhit, pedagogik tizimlar kiradi. bu pedagogika turkum fanlari hamda modullari Empirik kategoriyalar bilim, ko'nikma, malaka, kategoriyalaridir. Masalan, ta'lim, tarbiya, shaxs, tarbiyalash, rivojlanish, ijtimoiylashuv, ta'lim o'yin, o'qitishkabi kategoriyalari "Pedagogika texnologiyasidan iborat. Tarixiy kategoriyalarga nazariyasi va tarixi", "Umumiy pedagogika", usuli savtiya, muallim, dorilfimun, tolibi ihn, "Bolalarpedagogikasi", "Maxsus pedagogika" falakiyot kabilami kiritish mumkin. Fanlararo va boshqa pedagogika fanlarida mavjud. kategoriyalar ta'lim ("Falsafa", "Pedagogika", Sohalararo kategoriyalar o'z nomi bilan aniqlab "Psixologiya", "Tarix"), shaxs ("Falsafa", turibdi, turli sohalar qo'llanilib kelayotgan



kategoriyalar tushuniladi. Masalan, ma'lumot, o'yin faoliyati, o'qish faoliyati, mehnat faoliyati, mahorat, faoliyat kategoriyalari - tibbiyot, ijodiy faoliyat, amaliy faoliyat va b.; texnika, san'at sohalarida qo'llaniladi. muhit kategoriyasidan pedagogik muhit, Umumiste'moldagi kategoriyalar - kundalik ijtimoiy muhit, tabiiy muhit, o'quvchilar muhiti, hayotimizda ishlatilib kelayotgan pedagogik o'qituvchilar muhiti va b. kategoriyalami ifodalaydi. Ya'ni, bilim, O'zlashtirma kategoriyalar innovatsiya, o'qitisho' quv jarayoni, tarbiya, ta'lim kabilar. modemizatsiya, ta'lim menejmenti, kreativlik,

Pedagogika turkum fanlarining rivojlanishi, kompetensiya, sotsium, blended learning, case tarmoqlarining orttisha natijasida kategoriyalar study, вебинар дарслар, модератор, тьютор, ham shakllanishi kuzatiladi. Ular quyidagicha супервайзер, фасилитация, ассесмент тех- shakllanadi: нологиялари kabilar inobatga olingan.

birkategoriyadan boshqakategoriyalarining So'z birikmali kategoriyalarga o'quv mazmunan shakllanishi; jarayoni, pedagogik faoliyat, ta'lim o'zlashtirma kategoriyalar; pedagogik faoliyat, ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiyalar, ta'lim so'z birikmali kategoriyalar. menejmenti, pedagogik mahorat, kasbiy bilim, pedagogik tizim, pedagogik vazifa, ta'lim Bir kategoriyadan boshqa pedagogik tizim, pedagogik vazifa, ta'lim kategoriyalarining mazmunan shakllanishiga tamoyillari, tarbiya tamoyillari, ta'lim shakllari, quyidagi misollarni keltiramiz: tarbiya turlari va boshqalar kiritiladi.

shaxs kategoriyasidan o'quvchi, o'qituvchi, O' quv adabiyotlari tahlili asosida har bir talaba, jamiyat a'zosi, fiqaro, rahbar, fanning kategoriyalar! umumiy xususiyat bilan birga xususiy xususiyatni anglatadi. tarbiyalanuvchi, ta'lim oluvchi, ijtimoiy xodim Pedagogikada ham kategoriyalarning umumiy va va b.;

mahorat kategoriyasidan pedagogik xususiy xususiyatlari mavjud. Masalan, ta'lim mahorat, kasbiy mahorat va b.; kategoriyasini ko'rib chiqamiz (1 -jadvalga faoliyat kategoriyasidan pedagogik faoliyat, qarang).

1-jadval.

“TA'LIM” kategoriyasining umumiy va xususiy xususiyatlari

Kategoriyaning umumiy xususiyatlari	Fan / soba	Kategoriyaning xususiy xususiyatlari
TA'LIM - maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir	Surdopedagogika	TA'LIM - kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganib, maxsus o'quv-tarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus o'quv- tarbiya muassasalarini tashkil etish tartib-koidalarini ishlab chiqadi
	Oligofrenopedagogika	TA'LIM - aqliy zaif bolalarni o'qitish masalalarini ishlab chiqadi
	Tiflopedagogika	TA'LIM - ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni o'qitish, tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlash masalalarini ishlab chiqadi

«Umumiy pedagogika» fani quyidagi modullari bo'yicha kategoriyalarni tahlil qilamiz (2-jadvalga qarang).

2-jadval

«Umumiy pedagogika» modullari kategoriyalari

Modul	Modul nomlari	Modul kategoriyalari
1-modul	Umumiy pedagogika - ta'lim- tarbiya nazariyasi	pedagogika, pedagogika tarmoqlari, bilim, ko'nikma, malaka, pedagogik tizim, ilmiy- pedagogik tadqiqot metodlari, ta'lim tizimi, modernizatsiya, pedagog xodim, ta'lim menejmenti
2-modul	Tarbiya nazariyasi	tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiya turlari, tarbiya metodlari, tarbiya maqsadi, tarbiya tamoyillari
3-modul	Ta'lim nazariyasi	ta'lim, ta'lim jarayoni, bilim olish, dars, o'quv fani, ta'lim tamoyillari, ta'lim turlari, ta'lim shakli, ta'lim metodlari
4-modul	Ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyat sohasi	ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy adaptatsiya, sotsium, ijtimoiy himoya qilish, yetim bola, jismoniy nuqson, aqliy nuqson, ruhiy nuqson
5-modul	Pedagogik korreksiya	pedagogik diagnostika, tarkibiy diagnostika, tuzilmaviy diagnostika, tizimli diagnostika, korreksiya, kompensatsiya, oilaviy tarbiya, reabilitatsiya, inklyuziv ta'lim, atohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar
6-modul	Deviatsiya konsepsiyasi	deviatsiya, reabilitatsiya, ijtimoiy reabilitatsiya, zamonaviy profilaktika, shaxsiy profilaktika, ixtisus profilaktika, tibbiy profilaktika
7-modul	Pedagogik kasbiy kompetentlik va pedagogik mahorat	pedagogik mahorat, kasbiy bilim, pedagogik <u>tr</u> am, pedagogik vazifa, kompetensiya
8-modul	Ta'lim innovatsiyalari	innovatsiya, innovatsiya, ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy ta'lim, innovatsion ta'lim, interfaol ta'lim, an'anaviy ta'lim, pedagogik texnologiya tamoyillari, innovatsion faoliyat
9-modul	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari	innovatsion ta'lim, hamkorlik ta'limi, interfaol ta'lim, masolaviy ta'lim, muammoli ta'lim, tayyor ta'lim, kompyuter ta'limi, rivojlantiruvchi ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim, modul ta'limi, individual ta'lim, mustaqil ta'lim, dasturiy ta'lim, o'yin texnologiyalari
10-modul	Kreativ fikrlash pedagogikasi	kreativlik, ijodiy yo'nalganlik, eruditsiya, refleksiya, tabaqalashtirish, davrlashtirish, kreativ sifet
11-modul	Yul xoriijiy tajribalar	модулли кредит тизими, blended learning, case study, вебинар дарслари, эвристик методлар, маҳорат дарслари, масофали ўқитиш, модератор, тьютор, супервайзер, фасилитация, асесмент технологиялари, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS



Хулоса ва таклифлар (Conclusion / Recommendations). Хулоса қилиб айтганда, педагогика fanining kategoriyalarini o'rganish fanning muhim xususiyatlari va aloqalarini ifodalashga imkon beradi. O'quv jarayonida quyidagi takliflarga e'tibor berish lozim:

pedagogika kategoriyalarining mazmun-mohiyatini anglash;
pedagogika kategoriyalari tasniflaridan foydalanish;
yangi pedagogika kategoriyalarini topish va yaratish.

Foydalanilgan Adabiyotlar: <XXX)0000000000(XXXXXX)000000(X>

1. Асқаров А., Ахророва З., Рўзиматов Э., Садикова Ш., Содиков У. “Умумий педагогика” фани бўйича ЎУМ. - Тошкент, 2018. - 374 б.
2. Ибраимов Х., Қуронов М. Умумий педагогика. Дарслик. - Т: Саҳҳоф, 2023. - 416 б. - Б. 27.
3. Природа научных категорий. Электронный ресурс: Читать онлайн «Философия науки. Учебное пособие», Ирина Петровна Никитина - Литрес, страница 2 (litres.ru)
4. Тема 2. Категориальный аппарат педагогики. Электронный ресурс: Тема 2. Категориальный аппарат педагогики (studfile.net).
5. Фалсафа қомусий луғат. - Тошкент: Шарц, 2004. - 492 б. - Б. 193.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 80 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. К. - Тошкент: Ўзбеки- стон миллий энциклопедияси. - 479 б. - Б. 332.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 80 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Т. - Тошкент: Ўзбеки- стон миллий энциклопедияси. - 321 б. - Б. 222.